

О‘ЗBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI YONG‘IN-PORTLASH XAVFI MAVJUD BO‘LGAN OBYEKTlardagi AVARIYALARNING SABABLARI VA OQIBATLARINI OLDINI OLISH

Madaminova Shahloxon Sharifjon qizi

Andijon davlat texnika instituti

Bakalavr 3-bosqich talabasi, O‘zbekiston

Email: shahlomadaminova84@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi yong‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan obyektlardagi avariylarning sabablari va oqibatlarini oldini olish ya’ni yong‘in va portlashlarda odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga juda katta zarar yetkazmaaslik uchun qilinadigan zaruriy ko‘rsatmalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Yong‘in, portlash, yengil alangalanuvchi suyuqliklar, yonuvchan suyuqliklar, yonish jarayoni, yondiruvchi muhit, qizdirish jarayoni, yonish turlari, yonish manbasi, yong‘in bosqichlari, yong‘in fazalari.

Kirish: Yong‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan obyekt deganda yong‘in yoki portlash yuzaga kelishining potensial xavfi mavjud bo‘lgan obyektlar tushuniladi. Ko‘pincha yong‘in bilan birga portlash ham sodir bo‘ladi. Yong‘in va portlashlar o‘zaro uzviy bog‘liqligi sababli barcha tashkilotlarda sodir bo‘ladigan yong‘inlar natijasida portlashlar ham bo‘lishi mumkin yoki aksincha portlash natijasida yong‘inlar sodir bo‘lishi mumkin.

Yong‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan obyekt - faoliyati jarayonida yengil alangalanuvchi suyuqliklar, yonuvchan suyuqliklar, yonuvchan va qiyin yonuvchi qattiq moddalar va materiallar (shu jumladan chang va tolalar), suv, havo kislorodi va bir-biri bilan o‘zaro ta’sirlashganda yonishi mumkin bo‘lgan hamda ularning alangasi inson hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi, shuningdek obyektga tutash hududda ekologik xavfsizlikka tahdid solish uchun yetarli bo‘lgan miqdorda modda

va materiallar muomalada bo'ladigan(ishlab chiqariladigan, saqlanadigan, tashiladigan, utilizatsiya qilinadigan) korxonalardir.

Yonish jarayoni. Yonish deb, yonuvchi moddalardagi murakkab oksidlanish jarayonida bir moddaning ikkinchi moddaga aylanishi natijasida katta miqdorda issiqlik va nurlanish ajralishi bilan kechadigan hodisaga aytiladi. Yonishda asosan uch omil muhim rol o'ynaydi: yonuvchi modda, yondiruvchi muhit, qizdirish jarayoni.

Yonuvchi modda – yog'och, qog'oz, kimyoviy moddalar, yonuvchi suyuqliklar va har qanday organik moddalar kiradi.

Yondiruvchi muhit – havo tarkibidagi kislorod hisoblanadi.

Qizdirish jarayoni – yonish reaksiyasi boshlangandan keyin qizdirish manbai bo'lsa yonish tezlashadi.

Yonish turlari. Yonish jarayonini shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- chaqnash – yonuvchi aralashmaning bir lahzada yonib o'chishi va yonishning davom etishi uchun aralashma tayyorlashning zarurati yo'q;
- qizdirish natijasida yonishni vujudga kelishi;
- alangalanish – yonishning alanga olib davom etishi;
- o'z-o'zidan yonish – moddalar ichida asosan organik moddalarda ro'y beradigan ekzotermik reaksiyalar natijasida, tashqaridan qizdirishsiz yonuvchi aralashmaning o'z-o'zidan yonib ketishi;
- portlash – o'ta tez yonish kimyoviy jarayonining bosim va energiya hosil qilish bilan o'tishi.

Yonuvchi modda ma'lum haroratlarda o'zidan yonuvchi bug'lar ajratib chiqishi natijasida muqim alangalanish ta'minlansa, bu harorat alangalanish harorati deb yuritiladi. Ba'zi bir, asosan, organik moddalar (torf, qipiq, paxta, ko'mir mahsulotlari, qora-mollarning chiqindilari) o'z – o'zidan yonib ketish xususiyatiga ega. Buning asosiy sababi organik moddalar namlanganda, mikroorganizmlar rivojlanadi, natijada yuqori harorat hosil bo'lib o'z-o'zidan qizish jarayoni deb ataladi.

Yong'in - bu moddiy zarar, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazadigan nazoratsiz yonish.

2009 -yil 30- sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni, 2013- yil 28- martda esa Vazirlar Mahkamasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 89-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asosan quyidagi tushunchalar berilgan:

yong'in — odamlarning hayoti va (yoki) sog'lig'iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo'lmaydigan yonish;

yong'in nazorati — yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish maqsadida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyat;

yong'inlar profilaktikasi — yong'inlar kelib chiqishi ehtimolini istisno etishga va ularning oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan ogohlantirish chora-tadbirlari majmui;

yong'indan saqlash xizmati — odamlarning hayoti va sog'lig'ini, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni yong'inlardan himoya qilish, shuningdek ob'ektlarda, aholi punktlarida hamda boshqa hududlarda yong'in xavfsizligini talab darajasida saqlab turish maqsadida belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi 649-son [qaroriga asosan "Yong'in xavfsizligi qoidalari" tasdiqlangan.](#)

Yong'in boshlanishining asosiy belgilari:

- yonish hidi;
- tutun paydo bo'lishi;
- olovning aks etishi;
- yonayotgan rezinaning hidi;
- yonayotgan jismlarning chirsillashi;
- elektr lampalar xiralashib yonadi yoki butunlay o'chib qoladi.

Yong'in fazalari

Yong'inning I fazasi – boshlang'ich (yonishning paydo bo'lishi, yong'in parametrlarining bosqichma-bosqich oshishi);

Yong'inning II fazasi asosiy (barcha yong'in parametrlarining tez o'sishi);

Yong'inning III fazasi yakuniy (yong'inning rivojlanish jarayonining barqarorlashuvi va yonishning to'xtatishi).

Yong'in va portlashlarning asosiy sabablari:

- yong'in xavfsizlik qoidalariga amal qilmaslik;
- fuqarolarning loqaydligi, e'tiborsizligi ;
- elektr simlarining nosozligi;
- gaz, ko'mir, o'tin bilan isitiladigan vositalar;
- bolalarning o't bilan o'ynashlari;
- qasddan o't qo'yishlar;
- boshqa sabablar.

Yong'inning ikkilamchi ta'sir omillari:

- yong'inning sodir bo'lgan bino, devorining qulab tushishi.
- portlashlar sodir bo'lishi.
- yong'inning sodir bo'lgan joylarda turli kimyoviy va zaharli moddalarning atrof-muhitga tarqalishi.
- yong'inni suv bilan o'chirilganda turli kimyoviy moddalar qorishmasi natijasida portlashlar yuz berishi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yong'inda nobud bo'lganlarning 60-80%i nafas olish yo'llarining zaharlanishi yoki toza havoning yetishmasligi oqibatida halok bo'lar ekanlar.

Yong'in-portlash xavfi mavjud bo'lgan obyektlardagi avariyalarni oldini olish va undan aholini hamda obyektlarni muhofaza etish chora-tadbirlarida barcha qurilish materiallari o'tga chidamliligi jihatidan 3 turga bo'linadi

- yonmaydigan- beton, pishiq g'isht, marmar kabilar olovning ta'sirida yoki yuqori haroratda yonmaydi, tutamaydi va erimaydi.

- qiyin yonuvchan - bu materiallar yuqori harorat ta'sirida qiyinchilik bilan uchqunlanadi, tutaydi va ko'mirlanadi hamda olov manbai bo'lgandagina yonishda davom etadi. Bularga DVP, DSP va boshqalar kiradi.

- yonuvchan – bularga yog'och materiallari, sellyuloza, plastmassa, pol qog'oz bitumlar kiradi.

Amaldagi tartibga asosan yonuvchan va yengil yonuvchan qurilish materiallari jamoat joylarida, bolalar muassasalari va shifoxonalarda ishlatilishi qat'iy man etiladi.

O't o'chirish usullari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) yonayotgan zonani ko'p miqdorda issiqlik yutuvchi materiallar yordamida sovutish;
- 2) yonayotgan materiallarni atmosfera havosidan ajratib qo'yish;
- 3) yonayotgan zonaga kirayotgan havo tarkibidagi kislorod miqdorini kamaytirish;
- 4) maxsus kimyoviy vositalarini qo'llash.



1-Rasm. Yong'in jarayonidan namunalar

Yong'in va portlashlarning oldini olish chora-tadbirlari.

Yong'inning oldini olish choralari quyidagilar bo'lishi mumkin:

– tashkiliy (mashinalar va korxona ichidagi transport vositalarining to'g'ri rekspluatatsiya qilish, binolar va hududlarni to'g'ri saqlash, ishchi va xodimlarni yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomadan o'tkazish, ko'ngilli yong'indan muhofaza qilish guruhlarini tashkil etish, yong'in xavfsizligi masalalari bo'yicha buyruq va farmoyishlar chiqarish);

– texnik (elektr simlari va jihozlarni, ventilyatsiyani, isitish va yoritish tizimini oʻrnatishda, yongʻin xavfsizligi qoidalariga, loyiha meʼyorlariga rioya qilish, jihozlarni toʻgʻri joylashtirish);

– rejimli (belgilanmagan joylarda chekishni, yongʻin xavfli joylarda payvandlash va boshqa olovli ishlarni bajarish va h.k.) taʼqiqlash;

– ekspluatatsiyaviy (profilaktik koʻriklarni, texnologik asbob-uskunalarni taʼmirlash va sinovlarni oʻz vaqtida oʻtkazish).

Ishlab chiqarish obyektlarida portlashlarning oldini olishning uchta tamoyillari maʼlum. Bunga quyidagilar kiradi: yonuvchan tizimlarning shakllanishini bartaraf etish; yonishning boshlanishini oldini olish; yonish oqibatlariga dosh bera oladigan maʼlum bir qurilma ichida yonish manbasini lokalizatsiya qilish.

Yonish boshlanishining oldini olish quyidagi yoʻllar bilan amalga oshiriladi:

- dielektrik suyuqliklarning quvurlar orqali harakatlanish tezligini cheklash;

- gazlarda dispers zarrachalar paydo boʻlishining oldini olish;

– uskunalar va qurilmalarni yerga ulash orqali elektr zaryadlarini neytrallashtirish (zararsizlantirish);

– uchqun hosil qiluvchi materiallar (temir, poʻlat) oʻrniga alyuminiy, mis va ularning qotishmalaridan foydalanish.

Yonish manbasini lokalizatsiya qilish texnologik jarayonni amalga oshirishni oʻz ichiga oladi. Bunda mumkin boʻlgan yonish manbasi yonish oqibatlariga bardosh bera oladigan maʼlum bir apparat yoki gaz quvurida lokalizatsiya qilinadi.

Shu munosabat bilan, yongʻin va portlashni toʻsib qoluvchilar keng qoʻllaniladi. Ularning ishlash printsipi yonayotgan aralashmaning oqimi kichik diametrli koʻplab oqimlarga boʻlinishiga asoslanadi. Bunda issiqlik yoʻqotishlari tufayli portlash (yongʻin) alangasi tarqala olmaydi.

Yongʻin va portlashni toʻsib qoluvchilarning olovni kesuvchi kanallari quvurlar toʻplamlari, diafragmalardagi teshiklar, tekis tirqishlar, metall toʻrlar va boshqalardan iborat boʻlishi mumkin.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot obyektlarida sodir bo'ladigan yong'in va portlashlar odamlarning hayoti va sog'lig'iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga juda katta zarar yetkazadi. Bu o'z navbatida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun yong'in va portlashlarning sodir bo'lishi sabablarini, yong'in vaqtida to'g'ri harakat qilish qoidalarini, ularning oldini olish chora - tadbirlarini bilish va amalda qo'llash faqat maxsus tashkilotlarninggina emas, balki respublikamiz har bir fuqarosining burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.2009 -yil 30- sentyabrda O'zbekiston Respublikasining “Yong'in xavfsizligi to'g'risida”gi qonuni
- 2.2013- yil 28- martda esa Vazirlar Mahkamasining “Yong'in xavfsizligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 89-sonli qarori
- 3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi 649-son [qaroriga asosan “Yong'in xavfsizligi qoidalari”](#)